

**Asadova F.F**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, magistr*

**Annotatsiya:** *Sangardak daryosi havzasida tarqalgan Haplophyllum Juss. turkum turlarining fitotsenologiyasi, dorivorlik xususiyatlari va botanika-geografik rayonlar bo'yicha taqsimlanishini o'rganildi.*

**Kalit so'zlar:** *Haplophyllum Juss., Sangardak daryosi havzasi, rutadoshlar oilasi, morfologiya. biologik statistika, Origanum tyttanthum Gontsch*

Surxondaryo viloyati o'simliklar qoplami turli-tuman bo'lib; cho'l, adir, to'qay, kichik o'rmon, tog' cho'qqilarigacha bo'lgan balandliklarda keng tarqalgan. Sangardak daryosi va uning atrofi o'ziga xos subtropik iqlimga ega bo'lishi, yovvoyi o'simlik turlarining xilma-xilliggi bilan ajralib turadi. Bu hududning xarakterli geologik xususiyati - qisman paleogen davrida hosil bo'lgan rang-barang o'simliklarning keng tarqalganligidir.

Dunyo miqyosida bugungi kunda o'simliklardan dorivor moddalarni ajratib olish, ularning kimyoviy tuzilishi va biologik faolligini aniqlash hamda ularni amaliyotga tadbiq etish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Markaziy Osiyo, shuningdek O'zbekistonning ko'plab viloyatlarida ham o'simlik qo'plami keng doirada o'rganilyapti. Bu hududning ko'pchilik o'simliklari yovvoyi holda o'sib ilmiy jixatdan yetarli darajada o'rganilmagan. Bular orasida shunday o'simliklar borki ulardan xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida foydalanish mumkin. Masalan, tibbiyotda bo'yoqli va dorivor moddalar olishda asalarichilikda manzarali o'simliklar sifatida va boshqa sohalarda.

Haplophyllum Juss. turkumi asosan tog' oldi, olajinsli, o'rmonli tog'yonbag'irlari va jarliklarda, qumli va qumloq joylarda, tog' etaklaridagi rang-barang jismlarning qoldiqlarida, tekislik va tog' oldi, qumli va mayin tuproqli joylarda o'sadi. Ushbu turkum vakillari asosan O'zbekistonning Toshkent, Sirdaryo, Jizzax, Samarqand, Farg'ona, Qashqadaryo va Surxandaryo viloyatlardagi adirlar, tog' etaklari va o'rta qismidagi yonbag'irlarda o'sadi. Ko'pchilik olimlarning O'rta Osiyoning tog'li qismidagi maxalliy floralarda olib brogan izlanishlarida ushbu turkumga oid tur soni va tuzilishi haqida qisqacha malumotlar keltirib o'tilgan.

Toshbaqao't- *Haplophyllum Juss.* Rutadoshlar- oilasiga kiruvchi ushbu o'simlik Adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, turkum turlari Yer yuzida 70 dan ortiq (Ashfaq et al. 2020) Eron florasida 25 tur (Zohary 1973, Manafzadeh et al. 2014), Afg'oniston 12 turi (Podlech, 2012), O'rta Osiyoda 20 turi (Kovalevskaya, 1983), jumladan O'zbekiston florasida 16 turi (Vvedenskiy, 1959), Tojikiston florasida 14 turi (CHukavina, 1981), Turkmaniston florasida 11 turi (SHishkin, 1950), Qozog'iston florasida 10 turi (Pavlov, 1963), Qirg'iziston florasida 6 turi (Nikitina, 1957) turi tarqalgan.

O'rta Osiyoning tog'li qismidagi mahalliy floralarda olib borilgan floristik va geobotanik izlanishlarda turkum turlarning soni va ular to'g'risida qisqacha ma'lumotlar

keltirilgan xolos, Lekin hozirga qadar O'zbekistonda florasida tarqalgan turkum turlari geografiyasi, taksonimiyasi, ekologiyasi va fitotsenologiyasi ustida maqsadli tadqiqotlar olib borilmagan, olib borilgan yagona tadqiqot ishi turkumni ayrim turlarining repraduktiv biologiyasiga bag'ishlangan xolos. Biz uning dorivorlik va foydali xususiyatlarini inobatga olib, Sangardak daryosi havzasida tarqalgan Haplophyllum Juss. turkum turlarining zamonaviy konspektini tuzishni, tarqalgan hududlar tavsifi va fitotsenologiyasi, dorivorlik xususiyatlari va botanik-geografik rayonlar bo'yicha taqsimlanishini o'rganishni maqsad qildik.

### TADQIQOT METODIKASI VA USULLARI

Tadqiqot ishi floristikada keng qo'llanilib kelinayotgan klassik hamda zamonaviy metodlardan foydalanildi. Dala tadqiqotlari 2022-yilning mart oyidan avgust oyiga qadar amalga oshirildi. Dala tadqiqotlarida A.I. Tolmachev [Tolmachev, 1987], B.A. Yurtsev [Yurtsev, 1981], A.V.Sherbakov, S.R. Mayorovlar [Sherbakov va boshqalar, 2005] tomonidan ishlab chiqilgan metodlardan foydalanilgan holda olib borildi.

O'simlik turlarining hayotiy shakllarini aniqlashda S. Raunkier (1934), I.G. Serebrakov (1962) klassifikatsiyalaridan foydalanildi [.....]. S. Raunkier tasnifiga ko'ra, o'simlikning yangilanib turadigan organlarining joylashishiga va noqulay sharoitlarga moslashishiga ko'ra, I.G. Serebrakov tasnifiga ko'ra, ekologik-morfologik tasnif asosida aniqlandi.[2.50;30]

**Tadqiqotning natijalari.** 2020-2022 yillarda davomida bevosita olib borilgan dala tadqiqotlarimizda turkum turlari okrugning deyarli ko'p qismida, jumladan asosan adir va tog' oldi mintaqalarda uchradi.

2021 yilning aprel oyida O'z.F.A. Botanika instituti olimlari va ilmiy xodimlari bilan birgalikda Sangardak daryosi havzasi atrofida ilmiy ekspeditsiya uyushtirdik. Bu xududning boshqa xududlarga nisbatan o'simliklar dunyosiga boyligi bilan ajralib turardi. Bu xududda Haplophyllum Juss turkumi turlarini bir nechta turini uchradik va gerbariy tayyorlash uchun yig'ib oldik.

**Toshbaqao' t** (*Haplophyllum*) turkumi, ko'p yillik o't, kosacha va toj barglari beshtadan, changchisi 10 ta, mevasi 5 uyali ko'sakcha. Bu turkumning o'zbekiston uchun xarakterli bo'lgan, loy tuproqli cho'l va quyi adirda o'sadigan *N. Pedicellatum*, qum tuprokli cho'lda o'suvchi – *N. Ramosissimum* gipsli cho'l uchun xos *Obtisifolium*, qizil tuproqli tog' yonbag'irlarida tarqalgan *N. bucharicum*, *H. foliosum*, *H. leptomerum* singari turlarini ko'rsatish mumkin. Bo'yi *Haplophyllum* Juss. 30 - 70 sm, poyasi yuqori qismidan shoxlangan. Bargi tolning bargiga o'xshash uzunchoq, tekis qirrali. Guli sariq, poya va shoxlar uchida qalqonsimon to'pgul hosil qiladi. Mevasi 4 chanoqli ochilmaydigan ko'sakcha. May — iyudda gullaydi, avgustda urug'i pishib yetiladi. Toshbaqao'tlar bilan bir qatorda birqancha o'simliklar xam keng tarqalgan ekan. Bular quyidagilar:

*Phlomis thapsoides* Bunge.-Sigirquyruqkabi qo'ziquloq. Gemikriptofit. G'arbiypomirolay. Tog' oldi gilli va shag'alli. Efemeretum. Efir–moyli, asal–shirali

*Origanum tyttanthum* Gontsch.- Maydagulli tog'rayxon. Gemikriptofit. Kopetdog'-tog'lio'rtaosiyo. Tekislik va o'rta tog', toshli, gilli va shag'alli. Shiblyak, archazor. Dorivor, efir-moyli, oziqabop, asal-shirali

*Mentha arvensis* L. - Dala yalpizi. Gemikriptofit. Qadimiyo'rtaerdengizi. Tekislik va o'rta tog', suvga yaqin ariq, soy va buloqlar atroflaridagi mayda tosh-shag'alli, toshli. Gidrofit. Dorivor

*Gagea gageoides*- Piyozli boychechak. Kriptofit. SHarqiy-qadimiyo'rtaerdengizi. Quyi va o'rta tog', qoya yoriqlarida mayin tuproqlarda. Efemeretum, shiblyak, archazor. Manzarali

*Tulipa korolkovii* Regel. - Korolkov lolasi. Kriptofit. G'arbiyiyonshon-pomiroloy. O'rta tog', shag'alli, tosh-shag'alli. Efemeretum. Manzarali

*Fritillaria bucharicum* Regel. - Buxoro jumaguli. Kriptofit. Janubi-g'arbiy Pomiroloy. Tog'oldi va o'rta tog', olajinsli, mayin tuproqli, shag'alli va toshli. Efemeretum. Alkaloidli, manzarali

*Crocus korolkowii* Mash va Regel. - Korolkov zafaroni. Gemikriptofit. Sharqiy-qadimiyo'rtaerdengizi. Tog'oldi va yuqori tog', gilli va mayda tuproqli. Archazor, tragakanta. Manzarali, oziqbop,

*Iris halophila* var. - Sug'd gulsafsari. Kriptofit. O'rtaosiyo. Tog'oldi va o'rta tog', Mayin tuproqli, shag'alli. Antropogen, efemeretum. Alkaloidli, manzarali

*Iris khassanovii* Tojibaev va Turginov. - Xasanov gulsafsari. Kriptofit. G'arbiypomiroloy. O'rta tog', mayin tuproqli, shag'alli. Petrofit. Manzarali

*Allium alexeianum* Regel. - Aleksey piyozi. Kriptofit. Janubi-g'arbiy pomiroloy. O'rta va yuqori tog', toshli va shag'alli. Petrofit. Manzarali

*Piptatherum platyanthum* Nevski.- Kenggulli tog'tariq. Gemikriptofit. Pomiroloy. O'rta va yuqori tog', toshli va tosh-shag'alli va qoya yoriqlarida. Petrofit. Yem-xashak

*Avena barbata* Pott va Link J. - Soqolli suli. Terofit. Qadimiyo'rtaerdengizi. Tog' oldi, mayin tuproqli. Efemeratum, to'qay, shiblyak, archazor. Yem-xashak

*Poa angustifolia* L. - Ensizyaproq qo'ng'irbosh. Gemikriptofit. Golarktik. O'rta va yuqori tog', toshli to'kilmalarda. Petrofit. Yem-xashak

*Vulpia ciliata* Dumort.- Kiprikli vul'piya. Terofit. SHarqiy-qadimiyo'rtaerdengizi. Tekislik va tog' oldi, lyossli va tosh-shag'alli. Efemeretum. Yem-xashak

*Agropyron trichophorum* (Link). - Tukli bug'doyiq. Gemikriptofit. Qadimiyo'rtaerdengizi. Tog'oldi va o'rta tog', quruq va mayda toshli va mayin tuproqli. Efemeretum. Yem-xashak (Butun O'rta Osiyo).

*Secale cereale* L. - Bug'doysimon bug'doyiq. Terofit. Eron-o'rtaosiyo. Tog'oldi va quyi tog', Efemeretum. Oziqabop, yem-xashak, texnik (Butun O'rta Osiyo).

*Hordeum brevisubulatum* (Trin). - Kaltasanchiq arpa. Gemikriptofit. Sibir-o'rtaosiyo. Tekislik va o'rta tog', Suvga yaqin ariq, soy va buloqlar atroflari, toshli, mayda tuproqli. Efemeretum. Yem-xashak.